

Tursunov Diyorbek Prezident stipendiyasi sohibi bo'ldi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 5-fevraldagi PF-555-sonli, 2021-yil 9-sentabrdagi PF-6309-sonli farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi 226-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 6 dekabrdagi 396-son buyrug'iga muvofiq "2022/2023 o'quv yili uchun respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining oxirgi ikki kursida tahsil olayotgan iqtidorli talabalarga nomli davlat stipendiyalarini tayinlash to'g'risida"gi 413-sonli buyrug'i asosida Toshkent shahridagi Turin Politexnika universiteti talabalari Prezident hamda nomdor davlat stipendiyalariga munosib ko'rildi.

Jumladan, Sanoatda xo'jalik qurilishi va arxitektura yo'nalishi 4-bosqich talabasi Tursunov Diyorbek Azamiddin og'li, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasini qo'lga kiritdi.